



Milliy ruh – Qudratli kuch!

Mamajonov Ibrohim Olimjon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi

Umumqo'shin fakulteti 4-bosqich kursanti, Tadqiqotchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7018420>

ABSTRACT

mazkur maqolada chinakam yurt o'g'lonining o'z yurtini asrab avaylashda, uning sarhadlarini, hududiy yaxlitligi va tinchligini bardavom himoya qilishda, vaziyat taqazo qilganda o'z jonini qurbon qilishga undaydigan, yengilmas kuch bo'lgan milliy ruh yortilgan.

Received: 16th August 2022

Accepted: 20th August 2022

Online: 24th August 2022

KEY WORDS

milliy ruh, jangovar ruh, Vatan, axborot, tahdid, kuch.

Mudofaa sohasidagi eng muhim omil – bu harbiy xizmatchilarning o'z kuchiga bo'lgan ishonchi, mening ortimda buyuk Vatanim, buyuk xalqim turubdi, ularning himoyasi menga ishonib topshirilgan, shu yo'lda jonimni berishga ham tayyorman, degan muqaddas e'tiqoddir.

Shavkat Mirziyoyev.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida amalga oshirib borilayotgan islohotlar yangi bosqichga ko'tarildi, zarur barcha yo'nalishlar bo'yicha zamonaviy moddiy-texnik baza yaratildi. Qo'shinlarni boshqarish tizimida esa yangidan yangi zamonaviy usullar joriy qilinib borilmoqda. Zamonaviy ofitserlar, serjantlar va askarlarning jangovar tayyorgarligini oshirishda mintaqamizda amalga oshirish mumkin bo'lgan barcha harbiy harakatlarining reallashtirilgan mashg'ulot maydonlari yaratildi.

Ayni vaqtga kelib xalqaro terrorizm, ekstremizm kabi tahdidlar, milliy va global xavfsizlikka qaratilgan xurujlar tobora ortib borayotgan bir davrda Qurolli Kuchlarimizning jangovar salohiyatini yuksaltirish bilan birga Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek "Ruh

tayyorgarligini oshirish..." muhim ahmyatga egadir.

Biz buyuk ajdodlarimiz va otabobolarimiz haqida, jasur va qahramon harbiylarimiz haqida so'z yuritganimizda ularni "botir", "bahodir", "fidoiy", "mard", "matonatli", "qo'rqmas", "sheryurak", "pahlavon" degan sharaflil so'zlar bilan ularni e'zozlagan va sharaflagan holda alohida hurmat bilan tilga olamiz. Har bir o'zbek o'g'lonida mana shunday oliyanob fazilatlarini shakllanishiga, yosh avlodlarnimizni esa Vatan uchun chinakam qalqon, haqiqiy mard-u maydon bo'lishiga, sharoit taqozo qilganda esa ona Vatani uchun o'z jonini ham qurbon qilishga undaydigan kuch bu shubhasiz – Milliy ruhdur.

Ma'lumki dunyoda va yon atrofimizda xalqaro ziddiyatlarning keskinlashuv jarayoni davom etayotgani, turli hududlarda qonli mojarolar, qurolli to'qnashuvlar yuz berayotgani, yangi ziddiyat o'choqlari yuzaga kelayotgani bizni har doimo har qanday vaziyat va holatlarga munosib zarba berishga shay turishimizni ifodalaydi. Albatta, bizning Qurolli Kuchlarimiz faqatgina tinchlik maqsadlariga va Vatanimiz Mudofaasini



ta'minlashga xizmat qiladi. Jahonda mavjud bo'lgan keskin va tahlikali vaziyatda biz turli tahdidlarga munosib javob berishga tayyor bo'lishimiz, Vatanimizning tinch va barqaror rivojlanishi ta'minlash uchun Qurolli Kuchlarimizning jangovor tayyorgarligini muntazam oshirib borishimiz zarur.

Hozirgi kundagi eng kuchli jangovor tayyorgarlik va yengilmas kuch, yurtimizning barcha o'g'lonlari qalbini tarbiya qilishdir. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" asarida: "Bunday tarbiyaning asosida o'zak masala bo'lib turadigan tushuncha – Milliy ruhdir. Milliy ruh insonda ona allasi, uning oq suti bilan birga shakllanadi, desak to'g'ri bo'ladi. Shuning uchun Qurolli Kuchlarimizda, umuman, butun ijtimoiy hayotimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib borishda avvalo "ota-ona", "oila", "qadrdon qishloq", "qadrdon mahalla", "ona shahar", "ona Vatan", degan tushunchalarning mag'zini ochib berishga alohida e'tibor berish kerak" deb ta'kidlagan edilar.

Albatta, bunday ruhni shakllantirish murakkab ish bo'lib bu kabi muqaddas tushunchalar mohiyatini anglashimizda, bundayin qudratli kuchni yaratishda, birinchi navbatda ularni ana shunday ezgu qadryatlar dunyosiga olib kirmog'imiz lozim bo'ladi.

Biz ajdodlarimiz va buyuk sarkardalamizning harbiy san'atini hamda jasorat maktabini chuqur o'rganib borishimiz, ajdodlarimizning yengilmas qudrati bo'lgan "vatanparvarlik", "milliy ruh" kabi omillarini tadqiq qilib, bu harbiy qadryatlarni kundalik faoliyatimizga tadbiiq qilishga ehtiyoj kundan kunga ortib bormoqda.

Qudratli armiyaga asos solgan Amir Temur shaxsini o'rganib chiqqanimizda yengilmas armiyani yaratishda lashakarlari qalbida "milliy g'urur", "milliy iftixor" va "milliy ruh" kabi kuchli irodani va mustahkam e'tiqodni shakllantirganiga amin bo'ldik. Prezidentimizning quyidagi: "Ruhsiz tana o'lik kabi bo'lganidek, milliy ruhsiz ham tarix shunchaki ma'lumot va axborotlar yig'indisidan iborat bo'lib qoladi. Inson qalbida milliy g'urur tuyg'usi, o'z xalqi va Vatanga mehr xissi uyg'onmasa, har qanday noyob ma'lumot ham uning qalbiga chuqur kirib bormaydi. Biz bunga aslo yo'l qo'ymasligimiz lozim", degani bejiz emas.

Xulosa

Albatta, har bir o'zbek askarining qalbida haqiqiy yengilmas iroda va yengilmas kuch bu milliy ruh va jangovor ruhning uyg'inlashuvi natijasida vujudga keladi. Agarki biz Shiroq, To'maris, Muqanna, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Bobur Mirzo singari milliy qahramonlarimizning ruhini xis etgan holda Vatan himoyasiga tayyor bo'lib borishimizda bu qudratli kuch hech qachon har qanday yovlardan yengilmasligimizni ta'minlaydi. Har nafasida ona Vatani, tug'ilib o'ynab-o'sgan tuprog'i, qizil qonini mehri bilan oq sutga aylantirib bizni ona Vatanga mehruyg'otgan onasi, oilasi, tajribali va zukko nuroniy otahonlar, qadrlil bolajonlarimiz qalbidan o'rin oladi. Bunday ijtimoiy ruhiy asoslarga tayangan kuch hech qachon yengilmaydi. Bu "Milliy ruh" askar qalbida chinakam vatanparvarlik tug'usi orqali yurti, xalqi uchun doimo har qanday dushmanga qarshi mardlik, matonat bilan jasorat ko'rsatishga va zarur bo'lsa o'zini qurbon qilishga undaydi.



References:

1. Мирзиёев, Шавкат Миромонович. Миллий тикланишдан - миллий юксалиш сари. - Тошкент: "Ўзбекистон" НМИУ, 2020. - 456 б.
2. Армия - давлат таянчи тинчлик кафолфти. - Т "шарк", 2004. - 176 б.
3. Иброхимов. А. Бизким ўзбекдар... Миллий давлатчилигимиз хакида мулохазалар / Сўзбоши: И. Гофуров. - Т.: "шарк", 2001. - 400 б.
4. Karimov, Islom Abdug`aniyevich. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - Т.: "Ma'naviyat", 2008. - 176 b.